ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

№2(2)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 454 sahifa, 2-fevral, 2026-yil.*

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari ........ 22
Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna

O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida ........ 26
Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna

Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil ........ 29
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish ........ 33
Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish ........ 37
Nusharov Bobir Bolbekovich

Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя ........ 41
Олимова Азиза Кахрамоновна

"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari ........ 47
Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi

Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari ........ 50
Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich

Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari ........ 54
Fayziyeva Nozima Oybek qizi

Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi ........ 59
Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli ........ 64
Botirova Lobar Kamolovna

O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ........ 69
Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlarga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish ........ 73
Ergasheva Nigora Erkinovna

Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects ........ 76
Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna

Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari ........ 81
Rustemov Abseit Trijan o'g'li

Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni ........ 85
Baxramova O'ramol Uralovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati ........ 88
Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna

Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari ........ 92
Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich

Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli ........ 96
Ergasheva Mehriyona

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari ........ 100
Jummayeva Sayyora Shokir qizi

The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies ............ 104
Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi

Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash:
tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili ........................................................................ 109
Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna

Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi .................... 112
Qodirova Mavluda Maxodir qizi

Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations ...................................................... 116
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari ................... 123
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi

Qandli diabet bilan og'rigan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi........................................... 126
Shermatova Yakut Sabirovna

O'smirlar o'rtasida kiberbulling ............................................................................................... 129
Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish ................................ 132
Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna

Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.......................................................................... 135
Turdiyeva Zilola Jalilovna

Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni ........................................... 138
Xalikova Umida Mirovna

Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni ................................................. 143
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi

Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash .................................................................. 148
Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi

О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования........................................ 153
Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна

Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari .................. 156
Kushakova Gulnora Egamkulovna

Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini
aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish ................................................................................. 160
Normurodova Gulnora Ikromovna

Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari ........................... 164
Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi

Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri............................................. 168
Jurakulova Dildora Ziyadullayevna

Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari ........................... 172
Kazakova Saxiba Abdurayimovna

Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari................................ 178
Ziyayev Adxamjon

Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini ............................................................ 182
Jo'rayeva Nozima Nozim qizi

Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi ........... 185
Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari ................ 189
Teshaboyeva Feruza Raximovna

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri............................ 192
Ashirova Sojida Baxromovna

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini
differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari .................................................... 196
Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ........ 200
Jabborova Salomat Abdijalilovna

Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni......... 204
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish ............ 208
Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi

Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi ........ 213
Raximova Xurshidaxon Sadikovna

Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari ........ 217
Xalikova Nargiza Abduvaliyevna

Tilning obrazli kuchi: perifrazalar turlari va xususiyatlari ........ 221
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari........ 224
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi

Mentorlik faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish .... 229
Zikriyayev Zokir Mamirovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish ........ 232
Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, Sunnatullayeva Amina

Professional kompetentlilik va uning shaxs psixologik xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi ........ 235
Artikova Nodira Shavkat qizi

Talaba qizlarni jismoniy faolligini rivojlantirish tasnifi va ularni orgatish metodikasi........ 240
Otasheva Oysanamxon Hamidulla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik ........ 245
Bekchanova Kuvanch Roximovna

Voleybolchilarni tayyorlashda differensial vositalaridan foydalanishning zarurligini, ularning o'yin ampluasini hisobga olgan holda aniqlash usullari ........ 249
Kambarov Kozimjon Ibragimovich

2-toifa diabet bilan bog'liq stressga qarshi kurashish strategiyalari va psixologik holatlar ........ 254
Sadikova Umida Botirovna

Boshlang'ich ta'limda vizual va multimediaviy texnologiyalarning pedagogik-psixologik ahamiyati........... 258
Raximova Faridabonu Alisher qizi

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida VARK modeli asosida multimodal o'qitishni tashkil etish (OAK talablariga mos maqola)........ 261
Raximova Mushtariy Alisher qizi

Raqamli ta'lim muhitida veb-texnologiyalar asosidagi platformalarning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va optimallashtirish ........ 264
Zoxidov Jahongir Botirxonovich

Eshitishida nuqsoni bo'lgan koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini umumta'lim jarayonida ona tili darslarida rivojlantirish metodikasi........ 272
Isoqjonova Dilfuzaxon Muxtorjon qizi

Bo'lajak surdopedagoglarni mustaqil ta'lim jarayonida kasbiy malakani shakllantirishning samarali metodlari ........ 276
Teshabayeva Oygul Fazliddinovna

Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasiga o'ziga ishonch va o'z-o'zini qadrlashning ta'siri........ 280
M. R. Sultonova

Shifoxonalarda tashkil etilgan maktablarda bemor o'quvchilar bilan faoliyat olib boruvchi pedagoglarga qo'yiladigan talablar ........ 284
Umarova Saboxon Minavvarovna, Abdusattorova Gulxumor

Chet til ta'limida mustaqil ishni tashkil etish masalalariga doir ........ 287
Erkayev Elmirza Temirovich

10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirish metodikasi........ 294
Ishmuratov Hasanboy Karimjonovich

Jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining samaradorligini oshirish usullari ........ 298
Yaqubov Arslon Maxmudovich

Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati va uning o'rganilishi ........ 301
Dinora Eshboyeva Alisher qizi

Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish. Axloqning kelib chiqishi va asoslanish masalasini nazariy tahlil qilish ........ 306
Shaxayev Bauirjan Seytgaliyevich

Maktabgacha ta'limda STEAM ta'lim texnologiyalarini qo'llashda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ........ 310
Ahmedova Zuhraxon Mamurovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi va zaruriyati ........ 314
Mirzabayeva Zebo Umarovna

Elektrolitlarda elektr toki mavzusini o'qitishda noto'g'ri tasavvurlar va ularni bartaraf etish metodikasi ...... 317
Xoliqov Qurbonboy To'ychiyevich

Mediata'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya faoliyatini takomillashtirish . 323
Ibodullaeva Dildora Shukrulla qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda montessori metodikasining uyg'unligi ........ 327
Ismatova Shodiya Ne'matilla qizi, Xaydarova Shaxlo Narzullayevna

XIV asr oxiri va XV asr boshlari turkiy tillar taraqqiyotini o'rganishda "Kitob ul-Bulg'at" asarining lingvistik tadqiqi ........ 332
Tursunaliyeva Muslimabonu Abduvosit qizi

Informatika ta'limida interfaol o'quv majmualari asosida o'yinli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish........ 336
Nabiyev Feruz Abdumannonovich

STEAM loyihalari asosida maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish........ 341
Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich

Psixolog talabalarda tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish ........ 345
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna

Raqamli ta'lim muhitining pedagogik salohiyati asosida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish (texnologiya fanini o'qitish misolida)........ 348
Kulboyeva Dilnoza Abdug'ofurovna

O'zbek tili – faxrim, g'ururim ........ 351
H. Shukurova, M.Jumanazarova

Zamonaviy dars – pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni........ 355
M. Kuzibayeva

Talabalarni ta'lim jarayonida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish........ 358
Mastonov Jahongir Mamatqul o'g'li

Raqamli maktabda yashil o'quv dasturi: kengaytirilgan va virtual reallik texnologiyalari bilan integratsiyaning pedagogik modeli........ 362
Maxmudov Abdiqodir Yusupovich

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbiy faoliyat jarayonida pedagogik empatiyani shakllantirish pedagogik muammo sifatida........ 367
Orinbaeva Jarqinay Djuginis qizi

Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations ........ 371
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi muammolari ........ 377
Sh. A. Xujakulov, T. B. Kadirov

Uzoq muddat davolanayotgan bolalarning matematik savodxonligini oshirishda fanlararo bog'lanishning roli........ 383
Tursunova Dildora Ziyadullayevna, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li

Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning "Maorif" asarida bilish etikasi va ma'naviy-axloqiy tarbiya ..... 387
Tursunova Nilufar Samiyevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari ........ 393
Tursunova Saida Isakovna

Yosh avlodni tarbiyalashda hamkorlik tarbiya texnologiyasining o'rni ........ 396
Pirliyeva Gulmira Botir qizi

Integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o'quv majmuallardan foydalanish muammolari va rivojlanish istiqbollari........ 400
Nabiyev Feruz Abdumannonovich, Mamanazarov Baxrom Jumonovich

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatda bilish jarayonlarini rivojlantirish........ 405
Sadirova Kamola Giyozovna

Kurash sport turining yoshlar jismoniy va ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati........ 409
O'razboyeva Adiba Abdug'ani qizi

Bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashning pedagogik yondashuvlari. 413
Xalmuxamedov Bobir Taxirovich

О развитии учебно-познавательной деятельности студентов ........ 418
М. Халикова

Психологические механизмы искажения истины в процессе социализации: нормативно-когнитивная модель и смешанное эмпирическое исследование ........ 421
С. Ю. Нишанов

Методы повышения речевой активности студентов в процессе обучения иностранному языку........ 425
Утешова Зернегүл Хүрметуллаевна

Prenatal va erta chaqaloqlik rivojlanishi va rivojlanishning biologik asoslari ........ 429
N. Mirbabayeva

O'smir shaxsining rivojlanishi ........ 433
Matyakubova Shohista Odamboy qizi

O'zbekistonning ma'naviy va madaniy hayotida jadidlarning tutgan o'rni ........ 435
N. M. Qodirova

Development of Physical Qualities Through the Use of Special Physical Exercises With Student Participation........ 439
Rikhsiev Dilshod Shavkatovich

Tabiiy fan darslarida STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati ........ 442
Umaraliyeva Baxtilaxon Raxmonali qizi

Special Physical Exercises in Coxarthrosis During the Preoperative and Postoperative Periods of Rehabilitation........ 446
Valiev Farrukh Nigmatjonovich

Роль цифровых технологий и дидактических принципов в учебных практик........ 449
Байметов М. М.

# O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY VA MADANIY HAYOTIDA JADIDLARNING TUTGAN O'RNI

N. M. Qodirova
Yangi asr universiteti
"Umumta'lim fanlari" kafedrasi v.b. dotsenti, PhD

**Annotatsiya:** XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan tub o'zgarishlar milliy uyg'onish jarayonini boshlab berdi. Ayniqsa, chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosati mahalliy aholi turmush tarziga, ta'lim tizimiga va madaniy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Shu murakkab tarixiy sharoitda shakllangan jadidchilik harakati O'zbekiston hududida ma'naviy va madaniy taraqqiyotning muhim omiliga aylandi. Jadidlar jamiyatni isloh qilish, xalqni ma'rifatli qilish, milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish hamda zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Jadidlarning ta'lim islohotlari, yangi usul maktablarining tashkil etilishi, yoshlar ongida ma'rifiy uyg'onishning kuchayishi, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish borasidagi faoliyati yoritilgan. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat va boshqa jadid namoyondalarining pedagogik hamda ma'naviy qarashlari, shuningdek, ularning bugungi ta'lim islohotlari bilan uyg'unligi tahlil etilgan. Jadidlar merosi zamonaviy O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rin tutishi, ular targ'ib qilgan ma'rifatparvarlik, yangilikka ochiqlik va madaniy uyg'onish g'oyalari bugungi yoshlar hayotida ham davom etayotgani namoyon etilgan.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, meros, teatr, sahna, Yangi O'zbekiston, ma'naviyat, madaniyat, yoshlar, tarbiya, ayol-qizlar, ta'lim, islohot, g'oyalar, ziyoli.

**Abstract:** The profound socio-political transformations that occurred in Turkestan in the late 19th - early 20th centuries initiated a process of national awakening. In particular, the colonial policy of Tsarist Russia had a significant impact on the lifestyle of the local population, the education system, and cultural life. In this complex historical context, the Jadid movement emerged as an important factor in the spiritual and cultural development of the territory of present-day Uzbekistan. The Jadids set as their primary goal the reform of society, the enlightenment of the people, the strengthening of national identity, and advancement toward modern development. The article highlights the educational reforms carried out by the Jadids, the establishment of new-method schools, the growth of intellectual awakening among youth, and their efforts to foster national identity, patriotism, and a modern worldview. It analyzes the pedagogical and spiritual views of prominent Jadid representatives such as Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, and Abdurauf Fitrat, as well as the relevance of their ideas to contemporary educational reforms. The study demonstrates that the legacy of the Jadids occupies an important place in the spiritual and moral upbringing of modern Uzbek youth. The principles they promoted - enlightenment, openness to innovation, and cultural revival - continue to shape the lives and worldview of young people in contemporary Uzbekistan.

**Key words:** Jadidism, legacy, theater, stage, New Uzbekistan, spirituality, culture, youth, upbringing, women and girls, education, reform, ideas, intellectual.

**Аннотация:** Конец XIX - начало XX века в общественно-политической жизни Туркестана ознаменовались глубокими преобразованиями, положившими начало процессу национального пробуждения. В частности, колониальная политика царской России оказала существенное влияние на образ жизни местного населения, систему образования и культурную жизнь. В этих сложных исторических условиях джадидское движение стало важным фактором духовного и культурного развития на территории современного Узбекистана. Джадиды ставили своей основной целью реформирование общества, просвещение народа, укрепление национальной идентичности и продвижение по пути современного развития. В статье освещаются образовательные реформы джадидов, создание школ нового метода, усиление просветительского подъёма в сознании молодёжи, формирование национального самосознания, патриотизма и современного мировоззрения. Анализируются педагогические и духовные взгляды таких видных представителей джадидизма, как Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлони, Мунавваркори Абдурашидханов, Абдурауф Фитрат, а также их созвучие современным образовательным реформам. Показано, что наследие джадидов занимает важное место в духовно-нравственном воспитании современной молодёжи Узбекистана, а провозглашённые ими идеи просветительства, открытости к новшествам и культурного возрождения продолжают оказывать влияние на жизнь молодого поколения.

**Ключевые слова:** джадидизм, наследие, театр, сцена, Новый Узбекистан, духовность, культура, молодёжь, воспитание, женщины и девушки, образование, реформы, идеи, интеллигенция.

## KIRISH

XX asr boshlarida Turkiston zaminida shakllangan jadidchilik harakati oʻzbek xalqi tarixida eng muhim maʼnaviy-maʼrifiy uygʻonish bosqichlaridan biri boʻldi. Jadidlar harakati nafaqat taʼlim, madaniyat va siyosiy ong rivojiga, balki yosh avlod dunyoqarashi shakllanishiga ham ulkan taʼsir koʻrsatdi. Bugungi Oʻzbekiston yoshlari erkin fikrlashi, bilimga intilishi, milliy gʻurur va oʻzlikni anglashida jadidlar merosining oʻrni beqiyosdir.

Jadidlar Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Choʻlpon, Sadriddin Ayniy va boshqalar – xalqni jaholatdan maʼrifat sari yetaklashni oʻz oldilariga maqsad qilgan ziyolilardandir. Ular yoshlarni tarbiyalash, taʼlim tizimini yangilash va milliy uygʻonish gʻoyalarini yoyish orqali kelajak avlodning mustahkam maʼnaviy poydevorini yaratganlar. Jadidlar faoliyati maktab va madrasalardagi eski usul taʼlimni isloh qilish, “usuli jadid” maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish hamda matbuot orqali ijtimoiy ongni uygʻotish kabi yoʻnalishlarda namoyon boʻldi. Ularning pedagogik qarashlari yoshlarni zamonaviy ilm-fan yutuqlariga tayangan holda, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni koʻzda tutgan. Shu bois jadidchilik harakati nafaqat tarixiy hodisa, balki bugungi maʼnaviy-maʼrifiy taraqqiyotimizning muhim gʻoyaviy manbai sifatida ham ahamiyatlidir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakasi boʻlib, xalqning siyosiy va madaniy hayoti cheklangan, taʼlim tizimi esa qoloq holatda edi. Eski maktab-madrasalarda diniy bilimlar ustun boʻlib, dunyoviy fanlar oʻqitilmas edi. Shu sharoitda zamonaviy islohotlarga xalqning ehtiyoji paydo boʻldi. Aynan shu sababli jadidchilik harakati boshlandi. Jadidlar yoshlar tarbiyasiga zamonaviy maktablar ochish, yangi oʻqitish usullarini joriy etish, milliy va jahon adabiyotlaridan foydalanish hamda yoshlarda vatanparvarlik, milliy ong va zamonaviy tafakkurni shakllantirish orqali katta hissa qoʻshdilar. Ular taʼlim-tarbiyani millat va davlat taraqqiyoti uchun muhim vosita deb hisobladilar. Jadidlar anʼanaviy maktablar oʻrniga zamonaviy oʻqitish usullariga asoslangan yangi usul maktablarini tashkil etdilar.

Bu maktablarda oʻqish va yozishni oʻrgatish bilan bir qatorda jahon fanlari, matematika, geografiya kabi fanlar ham oʻqitildi. Ular taʼlim-tarbiya jarayonini takomillashtirish maqsadida yangi oʻqitish metodikasini ishlab chiqdilar. Bu metodika oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va ijodiy yondashuvga oʻrgatishni koʻzda tutdi. Jadidlar yoshlarning maʼnaviy va intellektual rivojlanishi uchun milliy hamda jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari, shuningdek, ilmiy-ommabop asarlardan foydalanishni targʻib qildilar. Yuksak vatanparvarlik ruhini va milliy ongni shakllantirish bilan birga, yoshlarning zamonaviy tafakkurga ega boʻlishini taʼminlashga alohida eʼtibor qaratdilar. Ular yoshlarni ilm-fanni oʻrganishga va taraqqiyotga erishishga undadilar. Munavvar qori Abdurashidxonov “Adabiyot”, “Tarix” kabi asarlari orqali oʻquvchilarga adabiyot va tarixni sodda va tushunarli tilda yetkazdi. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida axloqiy tarbiya, til va maʼnaviyat masalalariga alohida eʼtibor berdi, oddiy tilda yozilgan darsliklari orqali yoshlar dunyoqarashini shakllantirdi. Mahmudxoʻja Behbudiy “Muxtasar geografiya” kabi asarlari bilan geografiya va boshqa fanlarni mahalliy tilga mos va tushunarli tarzda bayon etdi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Madaniy yangilanish: jadid maktablarida ta'lim olgan yoshlar gazeta, jurnal, kutubxona va jamiyatlar tashkil etishda faol bo'lib, ma'rifat hamda tilni rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar. Ijtimoiy o'zgarishlarga tayyorlik: bu yoshlar yangi iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashish qobiliyatini oshirdilar, ishchi, o'qituvchi, jurnalist va boshqa kasblarda faoliyat ko'rsatdilar. Ilmiy yo'nalishlar: tabiat va texnika fanlariga qiziqishning ortishi keyingi avlodlar orasida ilm-fan rivojiga turtki bo'ldi. Ularning nazarida o'quvchilarga faqat diniy bilimlar emas, balki kundalik hayot uchun zarur fanlar – matematika, tabiiy fanlar, tarix, geografiya hamda til (o'qish-yozish) ham o'rgatilishi lozim edi.

Yangi usul maktablarida o'qigan yoshlar fikrlashga moyil, zamonaviy ilmga intiluvchan, jamiyatni yangilashda faol avlod sifatida yetishib chiqdilar. Ular keyinchalik ma'rifat, matbaa, gazeta va jamiyat tashkilotlari orqali o'z ta'sirini ko'rsatdilar. Matbuotning ma'naviy tarbiyadagi roli. Jadidlar birinchi o'zbek gazeta va jurnallarini yaratdilar: "Taraqqiy", "Sadoyi Turkiston", "Hurriyat", "Najot", "Oyna". Ushbu nashrlarda yoshlarni ilmga chorlovchi maqolalar, milliy ozodlik, ta'limning ahamiyati va jaholatdan qutulish haqidagi fikrlar yoritilgan. Mazkur matbuot yoshlar orasida yangicha fikrlash madaniyatini shakllantirdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Teatr va adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati. Jadidlarning yoshlar ongiga ta'siri teatr orqali ham namoyon bo'lib, ular yashab turgan ijtimoiy holatni, jaholat va ilmsizlikni ochiq ko'rsatib berdilar. 1911-yildan boshlab Behbudiy va Fitrat tomonidan sahnalashtirilgan spektakllar xalqning siyosiy va ma'naviy ongini yuksaltirdi. Eng mashhurlaridan biri – Behbudiyning "Padarkush" dramasi – o'zbek teatr san'atining shakllanishida muhim qadam bo'ldi hamda teatr sahnalarida yoshlarni adolat, ilm, hunar va axloqiy poklikka chorlovchi maktab vazifasini bajardi. Teatrning tarbiyaviy ahamiyati XX asr boshlarida - ayniqsa 1910-1920-yillar oralig'ida - yanada kuchaydi. Jadid ziyolilari teatr san'atini xalqni uyg'otuvchi, millatni taraqqiyotga boshlovchi eng kuchli vosita sifatida ko'rdilar. O'sha davrda savodsizlik keng tarqalgan, siyosiy ong past va ijtimoiy adolatsizlik kuchli bo'lgan sharoitda teatr xalqni birlashtiruvchi, voqelikni tushuntiruvchi "birinchi ommaviy maktab" vazifasini bajardi. Jadidlar o'z davrining ma'rifatparvar ziyolilari sifatida millat taraqqiyoti va kelajagi ayol-qizlarning bilimli bo'lishiga bevosita bog'liq ekanini ta'kidladilar. Ularning asosiy fikriga ko'ra, ayol – oila va jamiyatning markazi bo'lib, agar u savodsiz bo'lsa, butun millat taraqqiyoti ortda qoladi. Behbudiy ayol-qizlarning ta'lim olishini targ'ib qilgan va o'z mablag'lari hisobidan Toshkentda ayollar uchun maktab ochgan. Avloniy asarlarida ayol-qizlarning savodsizligi millat rivojiga to'siq ekanini ochiq ko'rsatgan. Fitrat ham o'z asarlarida ayolning jamiyatdagi o'rni va ta'lim zarurligini yoritgan. Jadidlar g'oyalaridan ilhomlanib, bir qancha qizlar maktablari tashkil etildi. Bu maktablarda nafaqat diniy bilimlar, balki zamonaviy fanlar, adabiyot, tarix va boshqa fanlar o'qitildi. Natijada ayol-qizlar bilimli bo'lib, o'z huquqlari va jamiyatdagi o'rnini anglay boshladilar.

Ta'lim olgan ayollar keyinchalik o'qituvchi, shifokor, yozuvchi va ma'rifatparvar sifatida faoliyat yurita boshladilar. Ular oilaviy hayotda nafaqat uy bekasi, balki tarbiyachi va jamiyatning faol a'zosi sifatida ham ishtirok etdilar. Bu esa ayol-qizlarning siyosiy va ijtimoiy faoliyatda qatnashishiga imkon yaratdi. Jadidlar davrida boshlangan ayol-qizlar ta'limi va faoliyati bugungi kunda ularning kasb-hunari, ilmiy faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi roliga mustahkam asos bo'ldi. Hozirgi kunda ayol bilimli, mustaqil va jamiyat rivojiga hissa qo'shuvchi shaxs sifatida qadrlanadi. Shu tariqa, jadidlar davridagi ma'rifiy kurash zamonaviy ayolning o'rni va mavqeini shakllantirishga katta hissa qo'shdi. Jadidlar faoliyati bugungi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va madaniy hayotida beqiyos o'rin tutadi. Ularning maqsadi faqat maktab ochish yoki kitob yozishdan iborat emas edi. Jadidlar millat kelajagini yoshlar ta'limida deb bildilar va shu yo'lda butun umrlarini sarfladilar. Aynan ular tufayli zamonaviy ta'limning dastlabki tamoyillari shakllana boshladi, yosh avlodning dunyoqarashi kengaydi va milliy o'zlikni anglash jarayoni tezlashdi. Bugungi yoshlarning erkin fikrlashi, yangilikka intilishi, ma'rifatga bo'lgan qiziqishi - bularning barchasi jadidlar boshlab bergan ma'naviy uyg'onishning davomidir. Ularning vatanparvarlik, millatparvarlik, adolat va ma'rifatga chorlovchi g'oyalari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Aksincha, "Yangi O'zbekiston" jarayonlarida bu tamoyillar yangicha mazmun kasb etib, yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Shu ma'noda, jadidlarning merosi biz uchun nafaqat tarixiy xotira, balki amaliy yo'l-yo'riqdir. Ular ko'zlagan maqsad - ilmli, zamonaviy fikrlaydigan, milliy g'ururga ega yoshlarni voyaga yetkazish - bugungi kunda izchil davom etmoqda. Demak, jadidlar qoldirgan ma'naviy boylik har bir yosh uchun ibrat manbai bo'lib, ularni yanada faol, mas'uliyatli va maqsadli bo'lishga undaydi. Abdulla Avloniy esa "Turkiy guliston yoxud axloq" asari orqali yosh avlodni axloqiy va ma'naviy barkamollikka da'vat etdi. U ta'lim-tarbiyani millat ravnaqi bilan bevosita bog'lab talqin qildi. Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentda yangi usul maktablarini tashkil etib, o'qituvchilar tayyorlash ishiga katta hissa qo'shdi. Jadid maktablarida geografiya, tarix, matematika va tabiiyot kabi fanlar o'qitilishi yoshlarning dunyoqarashini kengaytirdi. Jadidlar

milliy matbuotning shakllanishiga asos soldilar. Gazeta va jurnallar orqali xalqni ijtimoiy-siyosiy voqealardan xabardor qilish, milliy ongni uygʻotish, mustaqillik va taraqqiyot gʻoyalarini targʻib qilishga harakat qildilar.

Afsuski, 1920-1930-yillarda sovet hokimiyati tomonidan jadidlar “xalq dushmani” sifatida qatagʻon qilindi. Koʻplab ziyolilar qamoqqa olindi yoki qatl etildi. Bu holat milliy maʼnaviyat rivojiga katta zarba boʻldi. Shunga qaramay, jadidlar merosi xalq xotirasida saqlanib qoldi. Mustaqillik yillarida jadidlar faoliyati qayta baholanib, ularning nomlari tiklandi. Asarlari nashr qilinib, ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Jadidlar ilgari surgan maʼrifat, milliy oʻzlikni anglash, erkinlik va taraqqiyot gʻoyalari bugungi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasida ham oʻz aksini topmoqda. Respublikamizda taʼlim sohasini modernizatsiya qilish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda maʼnaviy barkamol avlodni tarbiyalash kabi vazifalar jadidlar orzu qilgan maqsadlar bilan hamohangdir. Ularning ilmiy va badiiy merosi yosh avlodni vatanparvarlik, fidoyilik va maʼrifatparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba boʻlib xizmat qilmoqda.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jadidlar merosi Yangi Oʻzbekistonning maʼnaviy-madaniy hayotida gʻoyaviy va amaliy ahamiyatga ega boʻlgan bebaho boylikdir. Ular ilgari surgan maʼrifatparvarlik, milliy uygʻonish, erkinlik va taraqqiyot gʻoyalari bugungi davlat siyosati hamda jamiyat taraqqiyoti bilan mushtarakdir. Jadidlar merosi nafaqat tarixiy xotira, balki zamonaviy taraqqiyotning mustahkam maʼnaviy asosidir. Ularning gʻoyalari asosida shakllangan milliy ong va maʼnaviy qadriyatlar Yangi Oʻzbekistonni barqaror hamda izchil rivojlantirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. M. Behbudiy. “Tanlangan asarlar”. Toshkent: Maʼnaviyat, 2011.
2. Qosimov A. “Jadidlar harakati va milliy uygʻonish”. Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.
3. Mingbiyev B. “Jadidchilik: tarix va meros”. Toshkent: Nishon nashriyoti, 2018.
4. Xolboyev S. “Jadidlar. Munavvar qori Abdurashidxonov” (ilmiy-ommabop). Toshkent, 2024.
5. Olim Oltinbek. “Jadidlar. Abdulla Avloniy” (ilmiy-ommabop). Toshkent, 2024.
6. Abdurashidxonov M. “Munavvar qori va jadidchilik harakati”. Toshkent: Akademnashr, 2019.
7. Rashidov Q. “Oʻzbek jadidchiligi tarixi”. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №2(2)**



© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.

**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.